

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

*Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Real
iqtisodiyot kafedrası dotsenti e-mail:*

erdonovmuhammad@gmail.com

*Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
e-mail: tolmasjonqurbonov06@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy va huquqiy asoslari tahlil etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini, davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy kafolatlar hamda islohotlarning natijadorligi yoritilgan. Prezident farmonlari va qonun hujjatlariga asoslanib, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi, nazorat tizimining soddalashtirilishi, byurokratik to'siqlarning kamaytirilishi va investitsion muhitning yaxshilanishi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasi statistik ma'lumotlar asosida baholangan hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, iqtisodiy asoslar, huquqiy asoslar, bozor iqtisodiyoti, soliq siyosati, investitsion muhit, islohotlar, kichik biznes, nazorat tizimi.

Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan bir paytda tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy va huquqiy asoslarini chuqur o'rganish, ularni tahlil etish hamda takomillashtirish yo'llarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. "Tadbirkorlik – bu nafaqat foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va jamiyatning ijtimoiy farovonligini oshirishning muhim vositasidir." (12) O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi iqtisodiy erkinlik, mulk huquqi kafolatlari hamda qonunchilik bazasining puxtaligiga bevosita bog'liqdir.

Shunga qaramay, tadbirkorlik sohasida bir qator tizimli kamchiliklar hanuzgacha mavjud bo'lib, ularning bartaraf etilishi iqtisodiy faollikni oshirish, xorijiy

investitsiyalar oqimini kuchaytirish va tadbirkorlarning huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, ayrim eskirgan huquqiy mexanizmlarning saqlanib qolishi natijasida soliqlar, majburiy to'lovlar va moliyaviy jarimalar bo'yicha sun'iy qarzdorliklar to'planib bormoqda. Bu hol tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha yuk yaratadi.

Ikkinchidan, ayrim davlat organlarining ortiqcha va samarasiz nazorat faoliyati tadbirkorlarning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmoqda. Nazorat jarayonlarining adolatli, ochiq va oqilona bo'lishi uchun yagona tartibga soluvchi tizimning yo'qligi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Uchinchidan, davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish yoki ko'chmas mulk obyektlarini buzish jarayonlarida zararlarni qoplash mexanizmlaridagi kamchiliklar tadbirkorlarning huquqlari buzilishiga, ularning davlatga bo'lgan ishonchining susayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligini pasaytiruvchi omilga aylanmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan huquqiy hamda iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib ular o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"(1)gi Qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"(2)gi Farmonida O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratish, biznes yuritishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi asosiy maqsad — tadbirkorlar faoliyatining erkinligini kafolatlash, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda davlat nazorati tizimini zamonaviy tamoyillar asosida qayta tashkil etishdan iboratdir.

So'nggi yillarda nazoratning muqobil va rejasiz turlari bekor qilinib, tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan litsenziya hamda ruxsatnoma jarayonlari soddalashtirildi. Bu islohotlar mamlakatda ishbilarmonlik muhiti rivojiga, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy reytinglardagi o'rnining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bizningcha tadbirkorlikning huquqiy va iqtisodiy asoslari bir-biriga uzviy bog'liq. Negaki, tadbirkorlikni huquqiy asoslarini qo'llab-quvvatlash: litsenziyalash

jarayonini soddalashtirish, soliq imtiyozlari berish hamda eksportni rag‘batlantirish orqali tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini o‘rishiga sababchi bo‘ladi.

1-jadval.

Tadbirkorlikning huquqiy va iqtisodiy asoslari¹

Tadbirkorlikning huquqiy asoslari	Tadbirkorlikning iqtisodiy asoslari
bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, boshqarish, himoya qilish va tartibga solishni ta‘minlaydigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar majmuidir. Ular tadbirkorlarning huquq va majburiyatlarini, davlat organlarining vakolatlarini hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish tartibini belgilaydi. • Tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari; • Huquqiy kafolatlar tizimi – Tadbirkorlarning mulk huquqini, shartnoma erkinligini va adolatli raqobatni himoya qiluvchi me‘yoriy mexanizmlar majmui; • Tadbirkorlik faoliyatida qonun ustuvorligini ta‘minlash, tekshiruvlarning shaffofligini va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy institutlar (Biznes ombudsmani, sud-huquq tizimi va boshqalar).	bu tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi, rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan iqtisodiy shart-sharoitlar, resurslar va mexanizmlar majmuidir. Ular mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida muhim o‘rin tutadi hamda xususiy sektorning rivojlanishiga zamin yaratadi. • Bozor infratuzilmasi – bank tizimi, sug‘urta, fond birjalari, kredit va investitsiya muassasalari orqali tadbirkorlik uchun zarur iqtisodiy sharoit yaratish; • Moliyaviy va investitsion resurslar – kapital, kredit, subsidiyalar va grantlar orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish imkoniyati; • Raqobatbardosh muhit va talab-taklif mexanizmi – bozor qonuniyatlari asosida foyda olish, mahsulot sifatini oshirish hamda samaradorlikni ta‘minlovchi iqtisodiy omillar majmui;

“2025 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 358 116 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 77 046 ta qayd etildi. 2025 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi

¹ Muallif ishlanmasi

Toshkent shahrida 84 453 tani yoki jamiga nisbatan 23,6,% ni, Toshkent viloyatida 34 389 tani yoki jamiga nisbatan 9,6,% ni va Samarqand viloyatida 31,470 tani yoki 8,8 % ni tashkil etdi”(3).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida)(6).

2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 338 802,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 84,0,% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.



2-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'ektlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida)(6).

2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 466 461,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 57,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,2 % ni tashkil qildi.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy va huquqiy asoslarini mustahkamlash O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi, nazorat mexanizmlarining isloh qilinishi hamda jamoatchilik nazoratining joriy etilishi ishbilarmonlik muhitini sezilarli darajada yaxshilamoqda. Shu bilan birga, ayrim eskirgan huquqiy mexanizmlarning saqlanib qolishi, nazorat organlarining ortiqcha vakolatlari va zararlarni qoplashdagi mexanizmlarning yetarlicha takomillashmaganligi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, bu sohada davlat islohotlarini izchil davom ettirish va yangi institutsional yondashuvlarni joriy etish zarur.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, tadbirkorlikni huquqiy va iqtisodiy asoslarini rivojlantiruvchi takliflar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, tadbirkorlikni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlarga mos ravishda yangilash;

Ikkinchidan, soliq va majburiy to'lovlar tizimini soddalashtirish hamda elektron nazorat mexanizmlarini keng joriy etish;

Uchinchidan, tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy yordam markazlarini tashkil etish va ularning faoliyatini kengaytirish;

To'rtinchidan, jamoatchilik nazoratini institutsional asosda rivojlantirish va ochiqlik mexanizmlarini mustahkamlash;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonuni, 25.05.2000 yildagi 69-II-son <https://lex.uz/uz/docs/-31846>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2023-yil 20-noyabr, PF-187-son. <https://lex.uz/acts/-3839746>
3. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3699&Itemid=1000000000000
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kichik biznesni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – 2024-yil 10-mart, PQ-120-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi <https://stat.uz/uz/>
7. "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi." – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – "Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati to'g'risida 2024-yilgi hisobot". – Toshkent, 2025.
9. Karimov, A. Tadbirkorlik nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
10. Raximov, B. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
11. Normurodov, I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari. – Samarqand: SIES nashriyoti, 2023.
12. Халимова М. (2023). Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishining zamonaviy asoslari. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 165–168. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24725>
13. Jahon banki hisobotlari (World Bank Reports). – "Doing Business in Uzbekistan 2024". – Washington, 2024.